Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/2(112)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

doi

Crossref
Content
Registration

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/2(112)

1997-yildan nashr etiladi

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

Toshkent – 2026

FAOL BANDLIK SIYOSATI O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA SIYOSIY BARQARORLIKVOSITASI SIFATIDA (2021–2025): INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, DAVLAT IMKONIYATI VA USTUVORLIKLAR



Qobil SHOIMOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi, Davlat boshqaruvi magistri (MPA).

Annotatsiya: maqolada 2021–2025-yillardagi O‘zbekistonning faol bandlik siyosati kambag‘allikni qisqartirish va siyosiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida tahlil qilinadi. Hujjatli-institutsional tahlil mahalla darajasidagi manzilli boshqaruv, mehnat daromadlari va faol dasturlar davlat imkoniyatini kuchaytirganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, norasmiy bandlik, sug‘urta himoyasining torligi, hududiy tafovutlar va mehnatning raqamli prekarizatsiyasi mazkur modelning uzoq muddatli barqarorligini cheklaydi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, bandlik siyosati, kambag‘allik, davlat boshqaruvi, siyosiy barqarorlik, mahalla, norasmiy bandlik, raqamlashtirish, platforma bandligi.*

Активная политика занятости как инструмент сокращения бедности и политической стабильности в Узбекистане (2021–2025): институциональные механизмы, потенциал государства и приоритеты

Шоимов Кобил,
независимый соискатель Узбекистанского государственного университета мировых языков, Магистр государственного управления (MPA).

Аннотация: в статье активная политика занятости Узбекистана в 2021–2025 годах анализируется как инструмент сокращения бедности и поддержания политической стабильности. Документально-институциональный анализ показывает, что адресное управление на уровне махалли, рост трудовых доходов и активные программы усилили потенциал государства. Вместе с тем неформальная занятость, узость страховой защиты, региональные диспропорции и цифровая прекаризация труда ограничивают устойчивость сложившейся модели.

Ключевые слова: *Узбекистан, политика занятости, бедность, государственное управление, политическая стабильность, махалля, неформальная занятость, цифровизация, платформенная занятость.*

Active Employment Policy as an Instrument of Poverty Reduction and Political Stability in Uzbekistan (2021–2025): Institutional Mechanisms, State Capacity and Priorities

Shoimov Kobil,
Independent researcher, Uzbekistan
State World Languages University,
Master of Public Administration (MPA).

Abstract: the article examines Uzbekistan's active employment policy in 2021–2025 as an instrument of poverty reduction and political stability. A documentary-institutional analysis shows that targeted mahalla-level governance, growing labour incomes and active programmes have strengthened state capacity. At the same time, informal employment, narrow insurance coverage, regional disparities and the digital precarisation of work limit the long-term durability of this model.

Keywords: *Uzbekistan, employment policy, poverty, governance, political stability, mahalla, informal employment, digitalisation, platform employment.*

2017-yildan boshlab, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi, 2021-2025-yillarda esa bandlik siyosati shu maqsadga erishishning asosiy mexanizmi sifatida shakllandi. Ushbu sohadagi burilishning dasturiy tavsifi Prezident Sh. Mirziyoyevning «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» asarida mustahkamlangan bo‘lib, unda kambag‘allikni qisqartirish davlat ustuvorligi darajasiga ko‘tarilgan: «2020-yil mamlakat tarixida ilk bor kambag‘allik tushunchasi mamlakat barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi jiddiy muammo sifatida e’tirof etilib, mazkur yo‘nalish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy masalalaridan biriga aylandi» [1, 438-b.]. Mamlakat nuqtali chora-tadbirlardan mahalla darajasida bandlik, tadbirkorlik, o‘qitish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni birlashtiruvchi ko‘p bosqichli tizimga o‘tdi; ijtimoiy siyosat nafaqa taqsimlashdangina iborat chegaralardan chiqib, boshqaruv, hisobdorlik va xizmatlarni hududiy tashkil etish maydoniga aylandi.

Mavzuning siyosiy ma’nodagi ahamiyati shundaki, ish o‘rni va mehnat daromadi fuqaroni davlat bilan transfert orqali emas, balki mehnat bozori, mahalla instituti va ijtimoiy sug‘urta orqali bog‘laydi. Bunday modelda barqarorlik faqat tartib bilan emas, balki kutilmalarni boshqarish, nisbiy deprivatsiyani kamaytirish hamda mehnatga asoslangan legitimlik bilan izohlanadi.

Jarayon ko‘lami kambag‘allik dinamikasida ko‘rinadi: xalqaro qiyoslanadigan – kuniga 6,85 dollar chegarasi bo‘yicha u 2015-yildagi 36 %dan 2022-yilda 17 %ga tushdi; 2021-yilda joriy etilgan milliy chegara bo‘yicha esa, 2023-yilda 11 %ga qisqardi, bu esa qariyb 1,6 mln kishining kambag‘allikdan chiqishini anglatdi [2], so‘ngra 2024-yilda 8,9 %ga va 2025-yilda 5,8 %ga yetdi [3]. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, ushbu raqamlar o‘z-o‘zidan siyosiy barqarorlikni ifoda etmaydi – ular faqat uni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning mustahkamlanganidan dalolat beradi.

Bandlik, davlat imkoniyati va siyosiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik O‘zbekiston misolida deyarli tizimli o‘rganilmagan. Milliy tadqiqotchilar kambag‘allik darajasini pasaytirishda aholi bandligi va tadbirkorlikning

o'rnini alohida ta'kidlashadi. Jumladan, S.P. Qurbonov ish bilan ta'minlash ko'rsatkichlarini oshirishni asosiy chora sifatida ko'rsatib o'tgan [4, 21-b.]. Ayrim olimlar esa bu jarayonda ilg‘or xalqaro tajriba va milliy amaliyotni o'zaro muvofiqlashtirish zarurligini ta'kidlashadi [5, 91-b.]. Biroq 2021-2025-yillarda shakllangan institutsional arxitektura — hokim yordamchisi, «mahalla yettiligi», ishsizlikdan himoya, ijtimoiy xavfsizlik hamda hududiy indekslar — yaxlit siyosiy boshqaruv modeli sifatida kam tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi 2021-2025-yillarda O‘zbekistonda faol bandlik siyosati qanday qilib kambag‘allikni qisqartirish va siyosiy barqarorlik mexanizmiga aylanganligini aniqlashdir. Bunda uchta gipoteza tekshiriladi: H1 — bandlik siyosati passiv yordamdan hududiy dekonsentratsiyalangan, manzilli va faol modelga o‘tdi (Xantington atamalarida — quyi institutsionalizatsiya); H2 — bandlik va mehnat daromadlari o‘sishi kambag‘allikni qisqartirishning asosiy omiliga aylandi; H3 — norasmiylik, ishsizlikdan himoyaning torligi, hududiy tafovutlar va mehnatning raqamli transformatsiyasi modelning siyosiy mustahkamligini cheklaydi.

Tahlil bir nechta nazariy asoslarga tayanadi. Ulardan birinchisi – Kopengagen maktabi vakillari – B. Buzan, O. Vever va Ya. de Vilde sekyuritizatsiyani shunday ta’riflaydilarki, unda masala «favqulodda choralarni talab qiladigan va siyosiy protsedura odatiy chegaralaridan tashqaridagi harakatlarni oqlaydigan ekzistensial tahdid sifatida taqdim etiladi» [6, 23–24-b.]. Kambag‘allik va ishsizlikni davlat ustuvorligiga ko‘tarish shu mantiqqa amal qiladi: muammo oddiy iqtisodiy qiyinchilik emas, balki boshqaruv va barqarorlik uchun xatar sifatida talqin qilinadi. Milliy siyosatshunoslik adabiyotida ham xavfsizlikning insoniy va ijtimoiy o‘lchovlari milliy xavfsizlik tizimining tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi [7, 18–24-b.]. A. S. Begmatov ijtimoiy xavfsizlikni barqaror ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro hamkorlik va ishonch bilan bog‘laydi [8, 10-b.].

Ikkinchisi – S. Xantingtonning siyosiy tartib nazariyasi. Uning dastlabki tezisi: «Mamlakatlar o‘rtasidagi eng muhim siyosiy farq boshqaruv shakliga emas, balki boshqaruv darajasiga taalluqlidir» [9, 1-b.]; bunda hal qiluvchi omil - institutlarning ijtimoiy talablarni o‘zlashtirish va tartibga solish qobiliyatidir. Modernizatsiya kutilmalarni tez oshiradi, agar institutlar javob berishga ulgurmasa, beqarorlik xavfi ortadi. Bandlik siyosati bu ma’noda kutilmalarni boshqarish mexanizmi hisoblanib, mehnat, daromad, murojaat kanali, ijtimoiy himoyaga ulanish kabi unsurlarni o‘zida jamlaydi.

Uchinchi asos – T. Garrning nisbiy deprivatsiya nazariyasi bo‘lib, u «odamlarning qadriyat kutilmalari bilan qadriyat imkoniyatlari o‘rtasidagi idrok etilgan tafovut» sifatida ta’riflanadi [10, 24-b.]. Bunda ishsizlik, beqaror daromad va hududiy tengsizlik kabilar bu tafovutni kuchaytiradi. Kambag‘allikning kamayishi ijobiy natija, biroq daromadlar bilan birga, kutilmalar ham o‘sadi, shuning uchun mehnat bozorining sifati, himoya qamrovi va hududiy imkoniyatlar adolatliligi barqarorlik uchun mustaqil ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, faol va passiv bandlik siyosatini farqlash muhim: passiv choralar ishsizlik oqibatlarini yumshatadi (nafaqa, kompensatsiyalar), faol choralar esa, uning sabablariga ta’sir qiladi – o‘qitish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, subsidiya va mikrokreditlar.

Siyosiy jihatdan aynan faol choralar muhim, chunki ular yordam oluvchini iqtisodiy faol subyektga aylantiradi. Zamonaviy adabiyotda bu ikkilik raqamli davrning «yangi ijtimoiy xatarlari» tahlili bilan to‘ldiriladi. Ye. S. Sadovaya platforma bandligining tarqalishi mehnat bozorining «yangi me’yoriy holati»ga aylanib borayotganini qayd etadi [11, 104-b.], N.V.Zakalyujnaya esa, nostandart mehnat shakllari «o‘zining huquqiy tartibga solinishidan ko‘ra tezroq shakllanishini» ta’kidlaydi [12, 141-b.]. Bugungi kunda platforma va nostandart bandlik ko‘rinishlari klassik sug‘urta mexanizmlari tayanadigan odatiy mehnat munosabatlarini zaiflashtirmoqda. Bu jihatga H3 gipotezasini tahlil qilish chog‘ida alohida e‘tibor qaratamiz.

Tadqiqot 2021-2025-yillarni qamrab olgan hujjatli-institutsional tahlilga asoslanadi: aynan shu yillarda kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya, «mahalla yettiligi», yoshlar tadbirkorligi va faol mehnat bozori dasturlari yaxlit majmuaga birlashdi. Obyekt – bandlik siyosatini boshqarish mexanizmlari; predmet – ularning kambag‘allikni qisqartirish va barqarorlikdagi roli.

Manbalar besh guruhga ajratildi: Prezident Sh. Mirziyoyevning islohotlarning konseptual asosini belgilovchi «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» va «Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston» dasturiy asarlari [1, 17]; O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari — rivojlanish va ijtimoiy himoya strategiyalari, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi, «mahalla yettiligi» va «Yoshlar biznesi» dasturi haqidagi qarorlar [13, 19]; Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) hisobotlari va tahlili [18, 22]; Jahon banki, Markaziy bank, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) hamda Statistika agentligi ma’lumotlari [2, 24]; ilmiy adabiyot va fundamental siyosatshunoslik nazariyalari, shu jumladan, milliy xavfsizlik bo‘yicha zamonaviy monografiya va darsliklar [8,7], shuningdek, bandlikning raqamli transformatsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar [4-12].

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi: institutsional arxitekturani qayta tiklash uchun me’yoriy hujjatlarning kontent-tahlili; kambag‘allik, bandlik, norasmiylik, himoya qamrovi va hududiy farqlar ko‘rsatkichlarini qiyoslash; natijalarni H1-H3 gipotezalari bilan solishtirish. Asosiy tushunchalar (faol bandlik siyosati, davlat imkoniyati, kambag‘allikni qisqartirish, siyosiy barqarorlik) yuqorida keltirilgan indikatorlar – kasbiy o‘qitish, mikrokredit, «mahalla yettiligi», reyestrlar, milliy kambag‘allik darajasi, hududiy tafovutlar orqali operatsionallashtiriladi.

Mazkur izlanishdagi quyidagi cheklovlarni inobatga olish zarur:

– hujjatli-institutsional dizayn ba'zi dasturlarning bevosita sababiy ta'sirini aniqlash imkonini bermaydi (bu ishtirokchilarning mikroma'lumotlariga ehtiyoj tug'diradi);

– statistika faqat chora-tadbirlar qamrovini ko'rsatib, ularning samaradorligini ochiqlamaydi;

– norasmiylik darajasi XMT metodikalariga asoslanib baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola qat'iy dalillarga tayangan sabab-oqibat qonuniyatini isbotlamaydi, balki to'plangan ma'lumotlarning gipotezalarga muvofiqligini ko'rsatib beradi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilab, kambag‘allikni kamaytirish, tadbirkorlik, o‘qitish va yoshlar bandligini yagona siyosat yo‘nalishiga bog‘ladi [13]. Aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi «aholi kambag‘allik darajasini bosqichma-bosqich qisqartirish va munosib yashash sharoitlarini yaratish»ni asosiy maqsad deb e’lon qildi hamda faol choralar ustuvorligini mustahkamladi [14], «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi esa, «kambag‘allik darajasini 2 baravar qisqartirish» va band bo‘lmagan aholini tadbirkorlikka jalb etishni bevosita nazarda tutadi [15].

Asosiy tashkiliy yangilik mahalla darajasida yuz berdi: «mahalla yettiligi» to‘g‘risidagi hukumat qarori fuqarolar yig‘ini raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektorining o‘zaro hamkorligini rasmiylashtirdi [16]. Bu burilish mantig‘ini Prezident Sh. Mirziyoyev quyidagicha ifodalaydi: «uyma-uy yurib o‘rganish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashning o‘ziga xos fuqarobay va mahallabay yangi tizimi shakllantirildi» [1, 202-b.]. Ushbu yondashuv keyingi dasturiy asarda yanada aniq ifodalangan: «Mahalla — biz qurayotgan Yangi O‘zbekistonning poydevori» [17, 47-b.]. Ishsizlar, kam ta’minlangan oilalar va yoshlar bilan ishlash oila va mahalla darajasiga ko‘chirildi, manzillilik esa, quyi reyestrlar bilan mustahkamlandi.

Ushbu modelni «to‘liq nomarkazlashtirish» deb atash noto‘g‘ri: nomarkazlashtirish mahalliy institutlarning mustaqil vakolatlarini nazarda tutadi, bu yerda esa markaziy siyosat quyi darajada amalga oshadi; aniqrog‘i — «hududiy dekonsentratsiyalangan manzilli boshqaruv». Siyosiy jihatdan u davlat imkoniyatini kengaytiradi: fuqaro statistik toifa emas, mahalla reyestrlari orqali aniqlanadi.

Munosib mehnat dasturi boshlanishida bandlik xizmati 14 ta hududiy va 206 ta tuman markaziga tayangan [18]; ularning mahalla modeli bilan birlashuvi «ishga joylashtirish — o‘qitish — ijtimoiy yordam» bog‘lanishini mustahkamladi. Shu bilan H1ning institutsional qismi hujjatli dalillar bilan aniq qo‘llab-quvvatlanadi: bandlik siyosati quyi darajada institutsionallashgan, manzilli va faol modelga o‘tdi.

2025-2027-yillarga mo‘ljallangan «Yoshlar biznesi» dasturi faol bandlik siyosatini mikromoliyalashtirishga bog‘ladi: 350 ming yoshni qamrab olish, 18-30 yoshli fuqarolar uchun kamida 100 mingta ish o‘rni yaratish, o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarga 100 mln so‘mgacha mikrokreditlar berish [19]. G‘oyaviy jihatdan bu yo‘nalish Prezident belgilagan yoshlar bilan ishlash dasturiga borib taqaladi, u buni «„bandlik“, „innovatsiya“ va „investitsiya“ dasturi» deb ataydi [1, 257-b.]. Shunday qilib, asosiy urg‘u an’anaviy yollanma mehnatga emas, balki kichik biznesni rivojlantirish hamda o‘zini o‘zi band qilish shakllari orqali aholi bandligi qamrovini kengaytirishga qaratilmoqda.

O‘zini o‘zi band qilish daromadlarni legallashtirishning ommaviy kanaliga aylandi: XMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda 852 mingdan ortiq o‘zini o‘zi band qilgan shaxs qayd etilgan, ulardan 310 mingdan ortig‘i

yoshlardir [20, 24-b.]. Bu raqamlar formallashtirishni kengaytiradi, biroq o‘zini o‘zi band qilish sifati va ijtimoiy himoya bilan qamrab olinish masalasini keskinlashtiradi: qayd etishning o‘zi barqaror ish o‘rnini anglatmaydi.

Kasbiy o‘qitish ham asosiy vositalardan biriga aylandi: 2024-yilning birinchi yarmida qariyb 113 ming ishsiz turli kasblarga o‘qitildi [21]. Mazkur yo‘nalishning strategik mazmuni «bilim, ta’lim va tarbiya — Yangi O‘zbekistonning tayanch ustunlariga aylanishi shart» degan tezisda ifodalangan [17, 62-b.]. Ammo bu oraliq natija: haqiqiy samara o‘qitilganlarning qancha qismi barqaror va formal ishga o‘tgani bilan belgilanadi.

1-jadval

Faol bandlik siyosatining asosiy institutsional mexanizmlari

Mexanizm	Vazifa	Siyosiy samara	Zaif tomoni
Hokim yordamchisi	Oilalar, ishsizlar va tadbirkorlar ehtiyojini aniqlash	Davlat xizmatini fuqaroga yaqinlashtirish	Kadrlar sifati va mahalliy manfaatlar ta’siri
«Mahalla yettiligi»	Bandlik, ijtimoiy yordam, yoshlar masalalarini muvofiqlashtirish	Davlat va jamiyat aloqasini mustahkamlash	Vakolatlar kesishuvi va noaniq hisobdorlik
Kasbiy o‘qitish	Ishsizlarni talab yuqori ko‘nikmalar bilan ta’minlash	Nisbiy deprivatsiyani kamaytirish	O‘qitish va real ish o‘rni o‘rtasidagi tafovut
Mikrokredit va subsidiya	Tadbirkorlik va o‘z bandligini rag‘batlantirish	Yordam oluvchini iqtisodiy subyektga aylantirish	Qarz yuki va past rentabelli loyihalar xavfi
Ishsizlikdan himoya	Ish yo‘qotilganda daromad pasayishini yumshatish	Kambag‘allikka qaytish xavfini kamaytirish	Tor qamrov; norasmiy migrant-ishchilar

Kambag‘allikning qisqarishi – H2ni tekshirish uchun asosiy nuqta. Jahon banki tahlilchilari O‘zbekistonda mehnat daromadlarining o‘sishi kambag‘allikni qisqartirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lganligini ta’kidlaydilar [2]: siyosat markazida nafaqat transfertlar, balki bandlik va daromadlar o‘sishi ham turadi.

Milliy kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17%dan 2023-yilda 11%ga [2], so‘ngra 2024-yilda 8,9%ga va 2025-yilda 5,8%ga tushdi [3]. Bunda «Temir daftar» manzilli hisob tizimida asosiy vosita rolini o‘ynadi: Prezident Sh. Mirziyoyevning ta’kidlashicha, unga «qariyb 594,3 ming oila, taxminan 2,5 mln kishi kiritilgan», o‘z navbatida, «daromad manbaini yaratish orqali 2,2 mln kishi „Temir daftar“dan chiqarilgan» [1, 441-b.]. Biroq, mazkur dinamikani baholashda obyektiv yondashuv talab etiladi: 2015-2022-yillardagi mehnat

daromadlari omili «mahalla» modeli joriy etilishidan avval shakllangan tendensiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois mazkur model yangidan jarayon yaratishdan ko‘ra, ko‘proq mavjud «mehnat — daromad» mexanizmini institutsional jihatdan tartibga solib, uning tizimli boshqarilishini ta’minlab berdi.

Davlat rahbari kambag‘allik oqibatida yuzaga keladigan siyosiy xatarlarga to‘xtalib, uning «yuqori darajasi jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab» bo‘lishini alohida ta’kidlaydi [1, 439-b.]. Mazkur yondashuv T. Garrning nisbiy deprivatsiya nazariyasi bilan nazariy jihatdan hamohangdir. Bu passiv yordamdan faol bandlikka o‘tishning ma’nosini ochadi: davlat daromadni faqat to‘lovlar (avvalo, pensiya [2]) orqali emas, mehnat va mahalla institutlari orqali ham kafolatlashga intiladi.

2-jadval

Mehnat bozori va kambag‘allikning asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat/dinamika	Siyosiy talqini
Kambag‘allik, milliy chegara	17 % (2021), 11 % (2023), 8,9 % (2024), 5,8 % (2025)	Jamiyat barqarorligini ta'minlovchi makroiqtisodiy va ijtimoiy zamin takomillashdi
Ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish	2024-yil I yarmida qariyb 113 ming ishsiz	Bandlikka ko‘maklashishning faol mexanizmlari joriy etildi; ularning yakuniy natijadorligi chuqur tahlil qilinishi lozim.
O‘zini o‘zi band qilish	2021-yilda 852 mingdan ortiq, ulardan 310 mingdan ortig‘i —yoshlar	Iqtisodiy faoliyatni institutsional rasmiylashtirish vositasi; bunda ijtimoiy kafolatlar darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.
Ishsizlikdan himoya	Bandlarning 8,8 %i qamrovda; nafaqa oluvchilar 0,7 %	Passiv himoyaning torligi retsidiv xavfni oshiradi.
Norasmiy bandlik	Ish kuchining qariyb yarmi; migrantlar bilan —56,6 %	Ijtimoiy himoya tizimidagi bo‘shliqlar hamda byudjet tushumlarining boy berilishi.
Hududiy nomutanosiblik	Toshkent indeksi 97,6; Qashqadaryo —2,2	Nisbiy deprivatsiya notekis taqsimlangan
Platforma va nostandart bandlik	Huquqiy tartibga solinishidan tez shakllanadi	An'anaviy ijtimoiy sug‘urta qamroviga kirmaydigan modernizatsiyalashgan «yangi ijtimoiy xatarlar»ning vujudga kelishi.

Bandlikni ta'minlashdagi faol siyosatning asosiy afzalligi fuqarolarni mehnat bozoriga tezkor qaytarishda namoyon bo'lsa, uning zaif nuqtasi passiv ijtimoiy himoya ko'lamining cheklanganligidadir. XMT ma'lumotlariga ko'ra, ishsizlik xataridan himoyalanish darajasi jami band aholining bor-yo'g'i 8,8 foizini qamrab olgan, ishsizlik nafaqasini oluvchilar ko'rsatkichi esa, atigi 0,7 foizni tashkil etadi [22]. Ushbu raqamlar amaliyotda faol mehnat siyosati hamda passiv ijtimoiy sug'urta mexanizmlari o'rtasida tizimli muvozanat ta'minlanmaganidan dalolat beradi.

Norasmiy bandlik sohadagi muammoni

chuqurlashtiradi: XMTning baholashicha, «norasmiy sektor ish o‘rinlari yaratishning asosiy, garchi ko‘p jihatdan norasmiy, manbai bo‘lib qolmoqda» [20, 15-b.], migrantlar bilan uning ulushi 56,6 %ga yetadi. Mazkur holatda norasmiy ishlovchilar pensiya, ishsizlik va ijtimoiy sug'urta kafolatlaridan chetda qolmoqda.

Norasmiy bandlikni qisqartirish va uni formallashtirishni quruq ma’muriy choralar yoki yuzaki moddiy yordam bilan hal etib bo‘lmaydi. Asosiy e’tibor rasmiy sektorda faoliyat yuritishning afzalliklarini oshirishga qaratilishi lozim. Ya’ni adolatli soliq tizimi, tibbiy va pensiya huquqlari, sug‘urta, kredit olish imkoniyatlari hamda munosib huquqiy himoya fuqarolar uchun chinakam motivatsiya manbaiga aylanishi zarur [20, 22]. Bu yondashuv zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasi bilan hamohang: «Ijtimoiy himoya faqatgina muhtojlarga pul tarqatishdan iborat emas, balki ularning o‘z boshiga tushgan qiyinchiliklarni yengib o‘tib, hayotda va jamiyatda munosib o‘rin topishiga ko‘maklashishi zarur» [17, 56-b.]. Demak, formallashtirish jazolovchi ma’muriy kampaniya emas, barqaror mehnat va himoya institutlariga kirish imkoniyatini kengaytiruvchi siyosat bo‘lishi kerak.

Aynan shu jihat H3ning model cheklovlari haqidagi qismini kuchli darajada qo‘llab-quvvatlaydi: kambag‘allikning qisqarishi norasmiy va sug‘urtalanmagan ish o‘rinlari hisobiga yuz bersa, uning barqarorlikka ta’siri o‘ta mo‘rt bo‘ladi. T. Garr ta’biri bilan aytganda, bu yerda «progressiv deprivatsiya» xavfi yashiringan, chunki o‘sayotgan daromad va umidlar fonida to‘satdan yuz beradigan iqtisodiy zarba yoki ishsizlik kishilarga o‘z turmush tarzini saqlab qolishga imkon qoldirmaydi [10].

Mehnat bozori hududiy jihatdan bir xil emas: PMTI indeksida Toshkent - 97,6 ball bilan eng yuqori, Qashqadaryo 2,2 ball bilan eng quyi o‘rinni egallagan [23]. 2023-yilda bandlik darajasi Toshkentda 82,3 %dan Qashqadaryoda 61,9 %gacha o‘zgargan [24]. Demak, siyosatni o‘rtacha ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash yetarli emas.

Ikkinchi cheklovning tabiati texnologik o'zgarishlarga borib taqaladi: raqamli transformatsiya klassik ijtimoiy himoya poydevori hisoblangan an'anaviy bandlik shakllarini transformatsiya qilmoqda. N. V. Zakalyujnaya nostandart mehnat shakl-lari — gig-, platforma va spot-bandlik, o‘zini o‘zi band qilish — huquqiy tartibga solinishidan tez shakllanishini ko‘rsatadi [12]. Ye. S. Sadovaya platforma bandligini sug‘urta modeli va davlatning ijtimoiy funksiyasini yemiruvchi barqaror tendensiya sifatida ko‘radi [11].

O‘zbekiston uchun bu mavhum istiqbol emas: «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi axbo-rot texnologiyalari sohasida band yoshlar sonini 300 mingga yetkazishni maqsad qilgan [15], o‘zini o‘zi band qilish esa allaqachon daromadlarni legallashtirishning ommaviy kanaliga aylangan [20]. Davlat rahbari raqamlashtirish jarayonlarining strategik ahamiyatini ochib berib, «axborot texnologiyalari to‘la ma’nodagi iqtisodiy o‘sishning „drayveri“ga aylanib bormoqda», deya qayd etadi [1, 181-b.]. Ushbu fikr «Raqamli iqtisodiyot – 2030» strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog'liqdir. Ammo bu yo‘lning teskari tomoni ham bo‘lib, u himoyalanmagan bandlik paradoksidir: inson rasman ish bilan band va statistik hisobga olingan, biroq standart mehnat

munosabatiga mo‘ljallangan sug‘urta mexanizmlaridan chetda qoladi. G. Standing kiritgan prekariat konsepti [11–12] siljishning siyosiy o‘lchamini qayd etadi: rasman band, ammo ijtimoiy ta’minlanmagan ishchilar qatlami nisbiy deprivatsiyaga, ayniqsa, moyildir [10]. Garchi raqamlashtirish jarayoni mehnat bozorida yangi imkoniyatlar eshigini ochsa-da, u ayni paytda, amaldagi faol bandlik choralari orqali bartaraf etish qiyin bo'lgan ijtimoiy xatarlarni ham shakllantiradi.

Tahlil H1ning institutsional qismini – aniq, H2ni – tavsifiy ma’lumotlar darajasida, H3ni esa, aniqlangan cheklovlar orqali qo‘llab-quvvatladi. H1 doirasidagi asosiy xulosa shundan iboratki, davlat bandlikka ko‘maklashish siyosatini eng quyi bo‘g‘inda — mahalla instituti negizida tizimlashtirdi. «Mahalla yettiligi», hokim yordamchisi va bandlik markazlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar davlat imkoniyatining quyi darajada kengayishini —Xantington talqinidagi institut-sionalizatsiyani anglatadi [9].

Ikkinchi gipoteza (H2) umumiy ma'lumotlar bilan hamohang bo'lsa-da, bevosita sababiy bog'liqlik xulosalariga kelishda obyektivlikni saqlash lozim: garchi mehnat daromadlarining ortishi hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan [2] va pasayish dinamikasi 2024-2025-yillar oralig'ida davom etgan bo'lsa ham [3], ular o'rtasidagi sof sabab-oqibat munosabatini ishonchli asoslash uchun mikrodarajadagi tahlillar zarur bo'ladi.

H3 gipotezasi amaldagi siyosatning asosiy kamchiliklarini yoritib beradi. Keng tarqalgan norasmiy bandlik [20], ishsizlikdan ijtimoiy himoyalanish darajasining pastligi [22], hududiy nomutanosibliklar [23–24] va huquqiy me'yorlardan oldinlab ketayotgan raqamlash-tirish tendensiyalari [11–12] qayd etilgan ijobiy natijalar bardavomligini cheklab qo‘ymoqda. Ushbu masala iqtisodiy xarakterga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, davlat boshqaruvi tizimiga ham borib taqaladi, chunki ijtimoiy himoya va xizmatlar, birinchi navbatda, yordamga muhtoj guruhlarni, shu jumladan, zamonaviy bandlik shakllari vakillarini maqsadli qamrab olishi lozim.

Tadqiqotning ilmiy hissasi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, O‘zbekistondagi amaldagi boshqaruv modeli shunchaki «nomarkazlashtirilgan» tizim emas, balki markaziy siyosatni mahalla darajasida amalga oshiruvchi «hududiy dekonsentratsiyalashgan manzilli boshqaruv» sifatida konseptualizatsiya qilindi. Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlarda muhokama qilinadigan «yangi ijtimoiy xatarlar» [11–12] o‘tish iqtisodiyotiga xos yuqori norasmiylik bilan qo‘shilganda, ijtimoiy sug‘urta institutlariga ikki manbali qo‘shimcha bosim yuzaga kelishi nazariy jihatdan asoslandi.

Birinchidan, iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish (formallashtirish) jarayonini ma’muriy bosim orqali emas, balki samarali iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari orqali jadallashtirish maqsadga muvofiq. Bu o‘rinda formal sektor ishchi uchun quruq soliq yuki emas, aksincha, kafolatlangan ijtimoiy va tibbiy sug‘urta, pensiya ta’minoti, moliyaviy resurslarga (kreditlarga) erkin kirish imkoniyati hamda mehnat huquqlari himoyasini anglatishi lozim.

Ikkinchidan, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlarga qarab emas, balki mehnat bozori indeksi past bo‘lgan hududlarga manzilli yo‘naltirish talab etiladi. Ushbu hududlarda sanoat zonalarini barpo etish, transport logistikasini yaxshilash, kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikni

moliyalashtirish dasturlarini kompleks tarzda (sinxron) rejalashtirish lozim.

Uchinchidan, yangi va nostandart bandlik shakllarini huquqiy tartibga solish jarayoni reaktiv emas, balki proaktiv xarakterga ega bo‘lishi kerak. Xususan, platforma bandligi, o‘zini o‘zi band qilish va masofaviy mehnat sohalari vakillarini ijtimoiy sug‘urta tizimiga (pensiya, tibbiyot, daromad yo‘qotish risklari bo‘yicha) to‘liq qamrab olish hamda raqamli daromadlarni hisobga olishning shaffof mexanizmlarini joriy etish shart. Aks holda, tezkor o'sayotgan IT va platforma bandligi sektori rasman ishli, biroq ijtimoiy kafolatlardan uzilib qolgan ishchilar qatlamini doimiy ravishda qayta ishlab chiqaraveradi.

Nihoyat, makroiqtisodiy bandlik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda, aholining davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi, mahalla tizimiga murojaatlar dinamikasi, ko'rsatilgan xizmatlardan qoniqish darajasi, hududlardagi ijtimoiy-siyosiy muhit (keskinlik) va qatnashchilarning farovonlik darajasini muntazam monitoring qilib borish zarur. Faqatgina ushbu ko'rsatkichlar orqali davlat siyosatining haqiqiy ijtimoiy-siyosiy samarasini obyektiv tahlil qilish imkoni yaratiladi.

Umuman olganda, tadqiqot 2021–2025-yillarda O‘zbekistondagi faol bandlik siyosati alohida chora-tadbirlar yig‘indisidan ko‘p darajali siyosiy-ma’muriy kompleksga aylanganini ko‘rsatdi. Hokim yordamchisi, «mahalla yettiligi», bandlik markazlari, manzilli reyestrlar, kasbiy o‘qitish, mikrokredit va subsidiya mexanizmlarining o‘zaro bog‘lanishi davlatning fuqarolar ehtiyojini aniqlash va xizmatlarni quyi bo‘g‘inga yetkazish imkoniyatini kengaytirdi. Shu ma’noda H1ning institutsional qismi hujjatlar bilan aniq qo‘llab-quvvatlandi: mazkur modelni to‘liq nomarkazlashtirish emas, balki markaziy siyosat mahalla darajasida amalga oshiriladigan hududiy dekonsentratsiyalashgan manzilli boshqaruv sifatida baholash ilmiy jihatdan to‘g‘riroqdir.

H2 bo‘yicha mehnat daromadlarining o‘sishi va kambag‘allikning pasayishi o‘zaro mos dinamikani namoyon etdi; Jahon banki tahlili ham mehnat daromadlarini kambag‘allik qisqarishining muhim omili sifatida qayd etadi [2]. Biroq mavjud hujjatli va statistik materiallar «mahalla» modeli yoki alohida faol dasturlarning sof sababiy ta’sirini ajratib bermaydi. Shu bois bandlik siyosatini siyosiy barqarorlikning bevosita isbotlangan sababi deb emas, balki daromad, ijtimoiy integratsiya, xizmatlardan foydalanish va davlatning ma’muriy qamrovini kengaytirish orqali barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi sharoitlarni shakllantiradigan mexanizm deb talqin qilish lozim.

H3 modelning uzoq muddatli mustahkamligi ish o‘rinlari sonidan tashqari, ularning sifati va himoyalanganligiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Norasmiy bandlik, ishsizlikdan sug‘urta himoyasining torligi, hududiy nomutanosibliklar, yoshlar va migrantlarning zaifligi, shuningdek, platforma hamda o‘zini o‘zi band qilish shakllarining tez kengayishi daromad o‘sishini avtomatik ravishda barqaror ijtimoiy himoyaga aylantirmaydi. «Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston» asarida ijtimoiy davlatning ustuvor vazifalari qatorida har bir inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyat yaratish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish belgilangan [17, 58-b.]. Demak, siyosatning keyingi bosqichi shunchaki bandlik maqomini qayd etishdan munosib,

formal va sug‘urtalangan ish o‘rinlarini ko‘paytirishga o‘tishi kerak.

Maqolaning siyosatshunoslikka qo‘shgan asosiy hissasi bandlik siyosatini faqat iqtisodiy vosita emas, balki resurslar, kafolatlar va javobgarlikni taqsimlaydigan siyosiy-ma’muriy institut sifatida tahlil qilishdan iborat. Mahalla darajasidagi tizim davlatning ma’muriy yetib borish imkoniyatini kuchaytiradi, biroq uning barqarorligi: reyestrlarga kiritish mezonlarining shaffofligi, qarorlarni asoslash, murojaat va shikoyat qilish imkoniyati, mahalliy mansabdorlarning hisobdorligi hamda real ijtimoiy sheriklik bilan belgilanadi. Shu sababli institutsional dizaynning mavjudligi amaliy natijadorlik va fuqarolar ishonchining o‘zi bilan tenglashtirilmasligi lozim.

Amaliy jihatdan ustuvor vazifalar — formallashtirishni iqtisodiy rag‘batlar orqali jadallashtirish, ishsizlikdan sug‘urta qamrovini kengaytirish, mehnat bozori zaif hududlariga differensial resurs yo‘naltirish, platforma va masofaviy mehnatni proaktiv tartibga solish hamda dasturlarni qamrov soni bilan emas, barqaror ishga o‘tish, daromadning davomiyligi va ijtimoiy kafolatlarga ulanish kabi yakuniy natijalar bilan baholashdan iborat. Bandlik va kambag‘allik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda, fuqarolarning mahalla xizmatlaridan qoniqishi, davlat institutlariga ishonchi, murojaatlar va shikoyatlar natijasi hamda hududlar kesimidagi ijtimoiy-siyosiy muhit muntazam o‘lchanishi zarur.

Shunday qilib, 2021–2025-yillardagi faol bandlik siyosati kambag‘allikni qisqartirish va davlat imkoniyatini mahalla darajasida kengaytirish uchun muhim institutsional zamin yaratdi, biroq siyosiy barqarorlikka avtomatik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri kafolat bermaydi. Modelning uzoq muddatli samarasi ma’muriy safarbarlik va ro‘yxatga olish ko‘rsatkichlaridan shaffof tartib-taomillar, munosib mehnat, formal bandlik, sug‘urta himoyasi va hisobdor boshqaruvga o‘tish darajasiga bog‘liq. Keyingi tadqiqotlarda mikroma’lumotlar, panel so‘rovlar, hududlararo qiyoslash va dastur ishtirokchilarining uzoq muddatli natijalarini kuzatish orqali bandlik siyosatining farovonlik, ishonch va barqarorlikka ta’siri bevosita tekshirilishi lozim.

Manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston»,2021. – 464 b.
2. Knight D., Pimhidzai O., Uochi I. Charting Uzbekistan's Path to Poverty Reduction: Insights from International Comparisons. – World Bank Blog, 09.05.2024.
3. Uzbekistan Macro Poverty Outlook. – Washington, D.C.:World Bank, April 2026.
4. Курбанов С. П. Повышение уровня занятости населения как инструмент сокращения уровня бедности населения в Узбекистане // Экономика труда. – 2023. – Т. 10, № 12. – С. 2185–2194. – DOI:10.18334/et.10.12.119877.
5. Bekmurodov A. va b. Kambag‘allikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uni qisqartirish yo‘llari // Jamiyat va boshqaruv. – 2022. – № 2 (96). – B. 89–99.

6. Buzan B., Wæver O., de Wilde J. Security: A New Framework for Analysis. – Boulder: Lynne Rienner, 1998. – 239 p.
7. Boboqulov I. I. va boshqalar. Xavfsizlik asoslari: darslik / mas'ul muharrir M. I. Atayev. – Toshkent: Complex Print, 2025.
8. Begmatov A. S. Ijtimoiy xavfsizlik: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – ISBN 978-9943-11-734-1.
9. Huntington S. P. Political Order in Changing Societies. – New Haven: Yale Univ. Press, 1968. – 488 p.
10. Gurr T. R. Why Men Rebel. – Princeton: Princeton Univ. Press, 1970. – 421 p.
11. Садовая Е. С. Рынок труда в цифровой экономике — перспективы регулирования // Мировая экономика и международные отношения. – 2022. – Т. 66, № 10. – С. 102–111. – DOI: 10.20542/0131-2227-2022-66-10-102-111.
12. Закалюжная Н. В. Новая концепция занятости и развитие трудовых отношений в цифровую эпоху // Право. Журнал Высшей школы экономики. – 2023. – Т. 16, № 2. – С. 139–164. – DOI: 10.17323/2072-8166.2023.2.139.164.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonFarmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-sonFarmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi «Mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta'minlash hamda «mahalla yettiligi» faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 137-son qarori.
17. Mirziyoyev Sh. M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2024. – 512 b.
18. Страновая программа по достойному труду Республики Узбекистан на 2021–2025 годы. – Женева; Москва: Международная организация труда, 2021.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi «Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va yoshlar bandligini ta'minlashning qo'shimcha choralari to'g'risida»gi PQ-62-son qarori.
20. Campbell D., Ronnas P. Towards Full and Productive Employment in Uzbekistan: Achievements and Challenges. Employment Country Reports Series. – Geneva; Moscow: ILO, 2021.
21. Mehnat bozori sharhi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024.
22. Social Protection in Case of Job Loss: Possible Options to Expand the Coverage with Unemployment Protection Programmes in Uzbekistan. Final Report. – Moscow: ILO, 2021.
23. O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorining hududiy indeksi. – Toshkent: PMTI, 15.02.2023.
24. Aholi bandligi darajasi hududlar bo'yicha, 2010–2023-yillar: stat. ma'lumotlar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2023.